



**Respublika Ixtisoslashtirilgan Onkologiya va Radiologiya
Ilmiy - Amaliy Tibbiyot Markazi Davlat Muassasasi**

BUYRUG‘I

«22» oktabr 2025yil

125-21 -son

**Tibbiy xizmat turlari sonini oshirish hamda ularning narxlarini qayta
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-martdagi 161-sonli qarori bilan tasdiqlangan Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazini samarali tashkil etish va rivojlantirish bo‘yisha Kuzatuv Kengashining 1-sonli bayoniga asosan Markaz faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish, tibbiy xizmat turlari sonini oshirish hamda ularning narxlarini qayta tasdiqlash to‘g‘risida qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, **buyuraman:**


1. Markaz tomonidan ishlab chiqilgan tibbiy xizmatlar uchun **yangi narxlar 2025-yil 1-noyabr** sanasidan boshlab amalga kiritilsin. Bunda anesteziologiya-reanimatsiya va immunobioximiya laboratoriyasi xizmatining amaldagi narxlari saqlab qolinsin (2025-yil 1-iyuldan kiritilgan).
2. Ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar tannarxlariga qimmatbaho bir marotabalik tibbiy buyum, sarflov vositalari va dori-darmonlar narxlari kiritilmasdan, ularning haqiqiy xarajati dalolatnomada aks ettirilsin.
3. Tibbiy xizmatlar narxlari Davlat sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar uchun Sog‘liqni saqlash vazirligiga 2%li ajratmasiz, norezident shaxslar uchun oshirilgan (2 baravar) narxlarda hisoblanisin.
4. Belgilansinki, Axborot texnologiyalari (IT) bo‘yicha menejer narxlar ro‘yxati 2025-yil 1-noyabrdan boshlab Markazning veb-saytida e‘lon qilinishi hamda Markaz axborot boshqaruvi tizimiga to‘liq va to‘g‘ri kiritilishiga mas‘uldir.
5. Bosh buxgalter (R.X.Gulyamova) 2025-yil 1-noyabrdan boshlab kassa bo‘limida navbatchilik qiluvchi kassirlar tomonidan xizmat uchun to‘lovlar Narxnomaga muvofiq to‘liq va to‘g‘ri undirilishi, Narxnomaning aholi uchun ko‘rishga qulay joyga o‘rnatilgan holda e‘lon qilinishi hamda Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga hisob-faktura taqdim etilishiga mas‘uldir..
6. Bo‘lim mudirlari, mutaxassis shifokorlar hamda barcha shifokor va hamshiralar o‘zlari ko‘rsatayotgan tibbiy xizmatlarning tasdiqlangan narxlarga muvofiq amalga oshirilishi, Qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishi va ko‘rsatilayotgan

barcha tibbiy xizmatlarning Markaz daromadi sifatida to'liq hisobga olinishi masalasida jiddiy yondashuv namoyon etsinlar. Bu talablarga rioya qilmaganlar shaxsan javobgar hisoblanadilar.

7. Direktorning davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari – bosh shifokor (B.B.Usmanov) va Bosh buxgalter (R.X.Gulyamova) ushbu buyruqning tatbiq etilishini birgalikda amalga oshirsinlar.

8. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor

A handwritten signature in blue ink, featuring a large circular loop on the left and a series of horizontal strokes on the right, crossing the loop.

Sedat Kaya

Kelishildi:

Markaz 1-o'rinbosari

Adil Murat Akgul

Bosh buxgalter


R.X.Gulyamova

Kadrlar bo'limi boshlig'i v.b



N.K.Abidova

Moliya-iqtisod bo'limi iqtisodchisi



F.N.Narziyev

Direktor maslahatchisi



F.X.To'raqulov

Huquqshunos

A.G.Karimov

2025 йил 1 ноябрдан